

UDK:619.616.993.192.615.084

JIZZAX VILOYATI SHAROF RASHIDOV TUMAN HUDUDLARIDA QORAMOLLARNING QON-PARAZITAR KASALLIKLARINI EPIZOOTIK HOLATINI O'RGANISH

*G'oyibnazarov Q.X. tayanch doktorant, Karimova N.U. k.i.x.,v.f.f.d,
Gafurov A.G. v.f.d.professor,
Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti*

Annotatsiya

Jizzax viloyatining Sh.Rashidov tumanida qoramollarning qon parazitlar kasalliklarining tarqalishi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bu hududda piroplozmozning tarqalishi 5,3% gacha, teylerioz 7,6 % gacha va babezioz 1,7 % shunga mos ravishda B. Calcaratus, H. anatolicum H. Detritum kanalar tarqalishi aniqlangan.

Kalit so'zlar. *Jizzax viloyati, qon-parazitlar, teylerioz, H.anatolicum, H.detritum, B.Calcaratus, piroplozmoz, babezioz, chorvachilik, epizootik.*

Kirish. Respublikamiz iqtisodiyotini yuksaltirishda chorvachilik muhim rol egallaydi. Chorvachilik aholini oziq-ovqat, sanoatni xom ashyo bilan ta'minlaydigan muhim sohadir. Bunday soxani rivojlantirishda veterinariya fani va amaliyotida tinmay mehnat qilib kelayotgan xodimlarning dolzarb vazifasi bo'lib hisoblanishi belgilangan.

Veterinariya ma'lumotlariga qaraganda Jizzax viloyatining chorvachilik xo'jaliklarida qoramollarning qon-parazitlar (piroplozmoz, babezioz, teylerioz) kasalliklari keng tarqalgan bo'lib, chorvachilikni rivojlantirishda katta iqtisodiy zarar keltiradi. Iqtisodiy zarar - kasallangan qoramollarning o'limi, mahsuldorligining pasayib ketishi va kasalliklarni davolash va profilaktika qilishda hamda veterinariya-sanitariya tadbirlari uchun ketgan xarajatlardan iborat bo'lishi ilmiy adabiyotlarda ma'lum qilingan.

Shu nuqtai nazardan qoramollar orasida uchraydigan qon-parazitlar kasalliklarining tarqalish darajasini aniqlash hamda ularga qarshi yuqori samara beradigan davolash profilaktika usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbir qilish muxim va dolzarb vazifa bo'lib hisoblanadi.

Maqsad. Jizzax viloyati chorvachilik xo'jaliklarida qoramollar qon-parazitlar kasalliklarini epizootik holatini, kasallik tarqatuvchi kanalar faunasi va turlarini aniqlashga qaratilgan.

Vazifalar:

1. Jizzax viloyat chorvachilik xo'jaliklarida qoramollar qon-parazitlar kasalliklarini tarqalish darajasini aniqlash.

2. Jizzax viloyat chorvachilik xo'jaliklarida qoramollar qon-parazitlar kasalliklarini tarqatuvchi kanalar faunasi, tarqalish darajasi va turlarini aniqlash.

Tadqiqotlar natijasi.

Jizzax viloyati issiq va quruq iqlimga ega bo'lgan hududlarida qoramollar qon-parazitlar kasalliklarining epizootologiyasi, kasallik tarqatuvchi kanalarining faunasi, kasallikning mavsumiy dinamikasi batafsil o'rganilish ularga qarshi kurash olib borishda asos bo'ldi.

Qoramollar qon-parazitlar kasalliklarini tarqatuvchi kanalar qoramollar organizmida parazitlik qilish jarayonida o'z so'lak bezlarida mavjud teylerioz qo'zg'atuvchilari-*Th.annulatani* sog'lom qoramol organizmiga o'tkazish natijasida kasallikni klinik belgilari, behollik, intoksikatsiya, anemiya, infiltratsiya holatlari, parenximatuz a'zolarida gipertrofik o'zgarishlar, shilliq pardalarda infiltratsiya, qon quyilishlar kuzatilishi natijasida kasallangan qoramollarning ko'pchiligi nobud bo'lishi, kasallanib sog'aygan qoramollarning mahsuldorligi pasayib ketishi va ishlab chiqarishda yaroqsiz bo'lib qolishi kabi teyleriozni klinik belgilari namoyon bo'lishi e'tirof etilgan.



1-rasm. Teyleriozda ko‘z shilliq pardalarida anemiya va infiltratsiya.

Respublikamizning mustaqillik davrida chorvachilikni yuritishning yangi zamonaviy fermerchilik tizimi kelib chiqqan bir paytda kasallik tarqatuvchi kanalarining faunasini tadqiqotlar asosida aniqlash va kasallikning mavsumiy dinamikasini o‘rganish kasalliklarga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqishda muhim ro‘l o‘ynaydi.

Shundan kelib chiqqan holda Jizzax viloyat chorvachilik xo‘jaliklarida qoramollar qon-parazitar kasalliklarining epizootik holatini o‘rganish va ularni tarqatuvchi iksod kanalarining tarqalish darajasini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Qoramollar qon-parazitar kasalliklarining epizootologik holatini o‘rganish, spontan kasallangan qoramollardan shtammlar ajratish, ajratilgan shtammlarni biologik, morfologik xususiyatlarini o‘rganib borish va ajratilgan shtammlarni kriokonservatsiya qilib kriobank tashkil qilish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari Jizzax viloyatining Sharof Rashidov tuman chorvachilik xo‘jaliklarida olib borildi. Qoramollarning qon-parazitar kasalliklarini tarqalish monitoringi qishloq aholisi qoramollari, shaxsiy yordamchi va fermer xo‘jaliklarida o‘rganildi. Buning uchun avvalo anamnestic ma‘lumotlar olindi va veterinariya hisobotlari bilan solishtirilib tahlil qilindi, so‘ngra har bir xo‘jalikdagi qoramollarni periferik qon tomirlaridan qon surtmalari tayyorlandi va parazitologik tekshiruvlar o‘tkazildi (2- 3-rasm).



2-3-rasm. Klinik tekshiruvlar va kasallangan qoramolda davolash jarayoni.

Natijada mavjud qoramollarda parazit tashuvchilik holati, kasallik tarqatuvchi kanalarining faunasi va tarqalish darajasi aniqlandi. Joriy yilning yoz mavsumi davomida Sharof Rashidov

tuman Turdibek fermer xo'jaligida mavjud 180 bosh qoramoldan 5,0 % teylerioz, 1,6 % piroplazmoz, va 1,1 % babezioz, Qang'li qishloq aholisi 170 bosh qoramollaridan 7,6 % teylerioz, 5,3 % piroplazmoz, 1,7 % babezioz, Oltinsoy fermer xo'jaligida mavjud 120 bosh qoramollardan 4,2 % teylerioz, 2,5 % piroplazmoz, 1,6 % babezioz bilan kasallanishi kuzatildi (4-5-rasm.).



4-5-rasm. Oltinsoy fermer xo'jaligida teylerioz bilan kasallangan qoramolni kilinik ko'rikdan o'tkazish.

1-jadval

Chorvachilik xo'jaliklarida qoramollar qon parazitlar kasalliklarining tarqalish darajasi

№	Tuman va xo'jalik nomi	Mavjud qoramol bosh soni.	Aniqlangan kasallik turi					
			teylerioz		piroplazmoz		babezioz	
			soni	%	soni	%	soni	%
1	“Turdibek” fermer xo'jaligi	180	9	5	3	1,6	2	1,1
2	Qang'li qishloq aholisi mollari	170	13	7,6	9	5,3	3	1,7
3	“Oltinsoy” f.x.	120	5	4,2	3	2,5	2	1,6

Shunday qilib, Jizzax viloyatining Sharof Rashidov tuman hududlarida mavjud qoramollarning o'rtacha 7,6 % gacha teylerioz va 5,3 % gacha piroplazmoz, 1,7 % babezioz bilan kasallanishi aniqlandi. (1-jadval).

Jizzax viloyatining chorvachilik xo'jaliklarida qoramollarni qon- parazitlar kasalliklarini epizootologik holatini o'rganish davomida piroplazmoz va babezioz bilan kasallanishning dastlabki cho'qqisi aprel oyida, yuqori cho'qqisi iyun oyiga, teylerioz bilan kasallanishni dastlabki cho'qqisi may oyida, yuqori cho'qqisi iyul oyida kuzatilishi aniqlandi.



6-rasm. *Hyalomma anatolicum* kanalari bilan kanalangan qoramol.

Qoramollar qon-parazitar kasalliklarining tarqatuvchi kanalar faunasi va tarqalish darajasini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar Sharof Rashidov tuman chorvachilik xo'jaliklarida hamda qishloq aholisi qoramollarida olib borildi. Tadqiqotlar jarayonida tekshirilgan qoramollarda kanalanish holati, uning turlari, avlodi, oilasi aniqlanib borildi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida kanalangan qoramollarni 30 foizi *Boophilus calcaratus*, 50 foizi *Hyalomma anatolicum* 20 *H.detrutum* kanalari tarqalganligi aniqlandi.

Qoramollar qon-parazitar kasalliklarini tarqatuvchi kanalar faunasini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar yoz mavsumida Sharof Rashidov tuman "Turdibek" chorva fermer xo'jaligi, Qang'li qishloq aholisi, "Oltinsoy" fermer xo'jaliklarida olib borildi.

2-jadval

Chorvachilik xo'jaliklarida qoramollar qon-parazitar kasalliklarini tarqatuvchi kanalar faunasini o'rganish natijalari

T/r	Xo'jalik nomi	Tekshiril-gan mol soni	<i>B.calcaratus</i> , %	<i>H.anatolicum</i> , %	<i>H.detri-tum</i> , %
1	Sharof Rashidov tuman Turdibek f.x.	180	10	20	5
2	Sharof Rashidov tuman Qang'li qishloq aholisi mollari.	170	14	22	7
3	Sharof Rashidov tuman Oltinsoy f.x.	120	12	24	6

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida "Turdibek" fermer xo'jaligida 10 foiz qoramollar *B.Calcaratus*, 20 foiz *H.anatolicum*, 5 foiz *H.detrutum*, Qang'li qishloq aholisi qoramollari 14 foiz *B.Calcaratus*, 22 foiz *H.anatolicum*, 7 foiz *H.detrutum*, Oltinsoy fermer xo'jaligi qoramollari 12 % *B.Calcaratus*, 24 % *H.anatolicum*, 6 foiz *H.detrutum* kanalari bilan zararlanganligi aniqlandi. (2-jadval).

Xulosalar

1. Jizzax viloyat Sharof Rashidov chorvachilik xo'jaliklarida mavjud qoramollarning o'rtacha 7,6% gacha teylerioz va 5,3% gacha piroplazmoz, 1,7 % babezioz bilan kasallanishi aniqlandi.

2. Jizzax viloyatining Sharof Rashidov chorvachilik xo'jaliklarida piroplazmoz, babeziozni tarqatuvchi *B.calcaratus*, teyleriozni tarqatuvchi *H.anatolicum*, *H.detritum* kanalari tarqalganligi aniqlandi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasi xulosasiga binoan Jizzax viloyatining Sharof Rashidov chorvachilik xo'jaliklarida piroplazmoz va teyleriozga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amaliyotga jorish qilish tavsiya qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rakhimov, T. K., Tursunov, M. T., Shmunk, E. K., & Gafurov, A. (1976). Study of the therapeutic and sterilizing properties of" ABP" in piroplasmid and Francaiella infections in cattle.

2. Rakhimov, T. K., Shmunk, E. K., Tursunov, M. T., Tashtemirov, N., & Gafurov, A. (1977). Dimidin and imidocarb for piroplasmosis.

3. Rakhimov, T. K., Shmunk, E. K., Tursunov, M. T., Tashtemirov, N., & Gafurov, A. (1977). Dimidine and imidocarb for the treatment of piroplasmid infections.

4. Rakhimov, T. K., Shmunk, E. K., Tursunov, M. T., Tashtemirov, N., & Gafurov, A. (1977). Dimidin and imidocarb for the control of piroplasmoses. *Veterinariia: ezhemesiachnyi naucho-proizvodstvennyi zhurnal*.

5. Kh, R. T., Tursunov, M. T., Abdullaev, U. A., Sherkulov, N., & Gafurov, A. G. (1980). [Treatment of the animals in theileria infestation [protozoan diseases, Veterinary drugs, bovines-general, Uzbek SSR]].[Russian]. *Veterinariya*.

6. Kh, R. T., Tursunov, M. T., Abdullaev, U. A., Sherkulov, N., & Gafurov, A. G. (1980). Lechenie zhivotnykh pri teylerioze. *Veterinariya*.

7. Shevchenko, T. N., & Gafurov, A. G. (1980). Distribution of anaplasmosis in cattle in the Uzbek SSR. In *Materialy desiatoi Konferentsii molodykh uchenykh Uzbekistana po sel'skomu khoziaistvu= Proceedings... Conference of Young Agricultural Scholars of Uzbekistan; animal husbandry, Karakul sheep breeding, sericulture, and veterinary science*.

8. Rakhimov, T. K., Shmunk, E. K., Tursunov, M. T., Abdullaev, UA, A. U., Sherkulov, N., & Gafurov, A. G. (1980). Treatment of Theileria annulata infection in cattle.

9. Tursunov, M. T., & Gafurov, A. G. (1981). Dejstvie terapevticheskikh preparatov pri fransaielleze krupnogo rogatogo skota. *Trudy UzNIVI Uzbekskij nauchno issledovatel'skij veterinarnyj institut, 31*.

10. Tursunov, M. T., & Gafurov, A. G. (1981). [The effect of therapeutic preparations administered to cattle affected by francaiellosis]. [Russian]. *Trudy UzNIVI Uzbekskij nauchno issledovatel'skij veterinarnyj institut*.

11. Rakhimov, T. K., Shmunk, E. K., Tursunov, M. T., Abdullaev, U. A., Sherkulov, N., & Gafurov, A. G. (1981). The treatment of animals against theileriasis.

12. Gafurov, A. (1981). Study of the effect of treatment on the survival of piroplasms in Boophilus calcaratus feeding on infected animals.

13. Gafurov, A. G. (1982). The economic mechanism and irrigated agriculture.

14. Karimov, B. A., & Gafurov, A. G. (1984). Therapeutic efficiency of imizole at bovine piroplasmosis and Francaiella infection. *Trudy Vsesoiuznogo instituta eksperimental'noi veterinarii*.

15. Karimov, B. A., & Gafurov, A. G. (1984). Effect of imizol on piroplasmid infections in cattle.

16. Karimov, B. A., Gafurov, A. G., & Timofeev, V. A. (1986). Efficacy of long-acting formulations of azidin (diminiazene) and diamidin (imidocarb analogue) in polyglucin against piroplasmosis.

17. Syroedov, V. I., Busareva, N. N., Nadykta, V. D., Seregin, V. P., Kosymov, P. K., & Gafurov, A. G. (1988). Technology of storing cottonseeds in a gas medium.

18. Тимофеев, Б. А., Дмитриева, М. Ю., Рахматуллин, Э. К., Цветкова, Н. Н., Каримов, Б. А., Гафуров, А. Г., ... & Боровков, М. Ф. (1990). Клиническая безопасность аллопуринола. In *ЭФФЕКТИВНОСТЬ ХИМИОТЕРАПЕВТИЧЕСКИХ ПРЕПАРАТОВ, БИОЛОГИЧЕСКИХ СТИМУЛЯТОРОВ В ВЕТЕРИНАРИИ* (pp. 10-16).

19. Тимофеев, Б. А., Рахматуллин, Э. К., Дмитриева, М. Ю., Цветкова, Н. Н., Каримов, Б. А., & Гафуров, А. Г. (1990). ЭФФЕКТИВНОСТЬ АЛЛОПУРИНОЛА ПРИ КРОВЕПАРАЗИТАРНЫХ ЗАБОЛЕВАНИЯХ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ЖИВОТНЫХ. In *ЭФФЕКТИВНОСТЬ ХИМИОТЕРАПЕВТИЧЕСКИХ ПРЕПАРАТОВ, БИОЛОГИЧЕСКИХ СТИМУЛЯТОРОВ В ВЕТЕРИНАРИИ* (pp. 3-9).

20. Timofeev, V. A., & Gafurov, A. G. (1993). Regulation mechanisms of the parasitic system during theileriosis in cattle.

21. Гафуров, А. Г. (1998). Современные методы терапии и профилактики пироплазмидозов животных в Узбекистане.

22. Турабаев, Н. Ж., Гафуров, А. Г., & Рахимов, А. Т. (2002). СЕРОТЕРАПИЯ И СЕРОПРОФИЛАКТИКА ТЕЙЛЕРИОЗА. *Вестник ветеринарии*, (3), 46-47.

23. Atoev, E. K., Abdurakhmanov, R. A., Koraev, M. T., Salomov, K. T., & Gafurov, A. G. (2006). Thermo-analytic research thermal amorphous hydroxide of iron; Termoanaliticheskoe issledovanie termicheskikh prevrashchenij amorfno go gidroksida zheleza. *Uzbekiston Khimiya Zhurnali*.

24. Соличов Д.Н., Гафуров А.Г. и Ризоев Х.Х. (2015). Реконструктивная хирургия длинных стриктур уретры у больных склеротическим лишаем полового члена. *Доклады урологии (Санкт-Петербург)*, 5 (3), 20-22.

25. Kuchkorova, S. K., & Gafurov, A. G. (2017). Selection of low-virulent strain of *Th. annulata*, useful for preparation the antitheileriosis vaccine. *Agrarian science*, (1), 22-24.

26. Кучкорова, С. К., & Гафуров, А. Г. (2017). Выделение слабовирулентного штамма *Th. annulata*, пригодного для производства противотейлериезной вакцины. *Аграрная наука*, (1), 22-24.

27. Баратов, Ж. Н., & Гафуров, А. Г. (2017). СПОСОБ ПРОФИЛАКТИКИ ПИРОПЛАЗМОЗА КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА. In *СОВРЕМЕННАЯ НАУКА: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ* (pp. 95-99).

28. Прназаров, К., Отегенова, Ш., Джумамуратов, А., & Гафуров, А. (2022). Факторы защиты импортного крупного рогатого скота Республики

Каракалпакстан от кровепаразитарных болезней и современные методы лечения и профилактики. *Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности*, 1(2), 104-108.

29. Гойибназаров, К., & Гафуров, А. (2022). Способ экспресс криоконсервации возбудителя тейлериоза (*Theileria annulata*) крупного рогатого скота. *Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности*, 1(2), 473-477.

30. Gafurov, G., Goibnasarov, K., & Karimova, N. U. (2023). *Theileria Annulate Mildly Virulent Strain Isolation For Creation of an Anti-Theileria Vaccine. Journal of Advanced Zoology*, 44.

31. Tursunov, M. T., Shmunk, È. K., & Gafurov, A. G. (1981). The effect of therapeutic preparations on bovine franciellosis.

32. Karimov, B. A., & Gafurov, A. G. (1984). Therapeutic efficacy of Imisol (imidocarb) against piroplasmosis in cattle.

33. Gafurov, A. G. (2002). Piroplasmidosis of cattle and prospects for the development of science in Uzbekistan. *Bulletin of veterinary medicine*, (3), 24.

34. Гафуров, А. Г. (2013). Основные итоги и перспективы научных исследований по изучению эпизоотической ситуации, разработке средств, методов терапии и профилактики протозойных болезней животных в Узбекистане. *Ветеринарна медицина*, (97), 572-573.

35. Гафуров, А. Г. (1999). Развитие протозоологической науки в Узбекистане. *Ж. Сельское хозяйство Узбекистана*, (4), 26-27.

36. Гафуров, А. Г. (1996). Распространение пироплазмидозов в Зарафшанской долине. *Ж. Ветеринария*, (3), 17-18.

37. Гафуров, А. Г. (2002). Пироплазмидозы крупного рогатого скота и перспективы развития науки в Узбекистане. *Вестник ветеринарии*, (3), 15-16.

38. Каримов, Б. А., Гафуров, А. Г., & Тимофеев, Б. А. (1986). Эффективность азидина и диамидина с полиглюкином при пироплазмидозах. *Ветеринария*, (9), 46.

39. Gafurov, A. G., Davlatov, R. B., & Rasulov, U. I. (2011). Protozoal diseases of farm animals.

40. Гафуров, А. Г., Давлатов, Р. Б., & Расулов, У. И. (2013). Ветеринарная протозология. *Учебник для ВУЗа.-Т.:«Зарафшан*.

41. Рузимуродов, М., & Амантурдиева, Н. (2022). Современные подходы к этиологии, эпизоотологии, диагностике и профилактике бруцеллёза мелкого рогатого скота. *in Library*, 22(4), 7-11.

42. Саидов, А. А., Рузимуродов, М. А., Абдалимов, С. Х., & Каюмов, Э. А. (2022). Результаты испытания отечественных наборов ифа для диагностики бруцеллёза животных. *Journal of new century innovations*, 14(2), 73-78.

43. Саидов, А., Абдалимов, С., & Рузимуродов, М. (2022). Разработка реагентов для иммуноферментного анализа (elisa) используемых при диагностике бруцеллёза и других инфекционных болезней. *Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности*, 1(2), 183-186.

44. Рузимуродов, М., & Жалилов, Ж. (2022). Экономический ущерб, наносимый заболеванием бруцеллез по показателям продуктивности животных. *in Library*, 22(1), 467-469.